International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service

Vol. 1 Issue 1 | pp. 251-253 **| ISSN:** XXXX-XXXX

Available online @ https://globalconf.net/index.php/samisi

Article

The Evolution of the Customs Procedure for Processing Within the Customs Territory in Uzbekistan and Reform Trends for 2022–2027

Buranov Husniddin Husenovich*

1. Independent Researcher, Tashkent State University of Economics (TSUE)

* Correspondence: buranovhusniddin1@gmail.com

Abstract: The paper traces the development of the inward processing customs procedure in Uzbekistan from 1997 to 2027. The trend is shown to move from licensing to permit-based regulation, then to liberalisation and targeted incentives, accompanied by stronger financial accountability of participants. Directions for further research on stimulating high value-added production are substantiated.

Keywords: inward processing, permit, security for customs payments, yield rate, customs value, financial sanctions.

Citation: Husenovich, B. H. The Evolution of the Customs Procedure for Processing Within the Customs Territory in Uzbekistan and Reform Trends for 2022–2027. International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service 2026, 1(1), 251-253.

Received: 22th Aug 2026
Revised: 26th Sept 2026
Accepted: 28th Oct 2026
Published: 22nd Nov 2026

Copyright: © 2026 by the authors. Submitted for open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

1. Dolzarbligi

Qayta ishlash bojxona rejimi O‘zbekistonda eksport salohiyatini oshirish va chuqur qayta ishlangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishning muhim vositalaridan biriga aylandi. Rejimni tartibga solish keyingi yillarda tez o‘zgargani sababli uning rivojlanish tendensiyalarini tizimlashtirish va yangi tartiblarning mantiqini aniqlash ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

2. Rivojlanish bosqichlari

Tadqiqot rejim evolyutsiyasini quyidagi bosqichlarga ajratadi. **Birinchi bosqich (1997–2016).** 1997-yil 26-dekabrdagi Bojxona kodeksida (1998-yil 1-martdan amalda) uch rejim: bojxona hududida qayta ishlash, bojxona nazorati ostida qayta ishlash (ichki iste’mol uchun) va bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash nazarda tutilgan, joylashtirish bojxona organi litsenziyasi asosida amalga oshirilgan; bojxona nazorati ostida qayta ishlash rejimi 2003-yil 24-iyundan bekor qilingan, qayta ishlash operatsiyalari esa Adliya vazirligining 2000-yil 29-noyabrdagi 987-son qarori asosida tartibga solingan. **Ikkinchi bosqich (2016).** 2016-yil 22-aprelda yangi tahrirdagi Bojxona kodeksi kuchga kirib, qayta ishlash rejimlari bojxona organi beradigan ruxsatnoma asosida amalga oshiriladigan bo‘ldi. **Uchinchi bosqich (2021–2022).** 2021-yil 1-avgustdan xorijiy buyurtmachi bo‘lmagan hollarda ham qayta ishlash operatsiyalariga ruxsat berildi. Prezidentning 2022-yil 25-apreldagi PF-115-son Farmoni bilan 2022-yil 1-maydan unifikatsiyalangan va soddalashtirilgan tartib joriy etildi: operatsiyalar doirasi (qadoqlash, saralash, tozalash, uskunalarni modernizatsiya qilish) kengaytirildi, majburiy sertifikatsiya va sanitariya-epidemiologik xulosa talabi bekor qilindi, chiqish normalarini qayta ishlovchining o‘zi belgilashi, 2 yilgacha umumiy ruxsatnoma berilishi,

chiqindilarni bojsiz erkin muomalaga chiqarish va ruxsatnomani boshqa shaxsga o‘tkazish imkoniyatlari yaratildi. Prezidentning 2022-yil 12-oktabrdagi PQ-392-son qaroriga ko‘ra, 2022-yil 13-oktabrdan barcha tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun bojxona to‘lovlari ta’minoti talabi to‘liq bekor qilindi, bu korxonalarning aylanma mablag‘larini tejashga xizmat qildi.

3. To‘rtinchi bosqich (2025)

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 2-sentabrdagi 555-son qarori bilan Nizom tasdiqlanib, chet el tovarlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarish obyektiga olib ketish, mahsulotni kooperatsiya tartibida yana qayta ishlash uchun rejimga joylashtirish va birinchi qayta ishlovchidan ikkinchisiga hisob-faktura orqali sotish imkoniyati berildi; qayta ishlash mahsulotini eksport rejimida chiqarish yetarli darajada qayta ishlanganlik sharti bilan belgilandi. **Beshinchi bosqich (2026).** Prezidentning 2025-yil 17-dekabrdagi PF-250-son Farmoniga muvofiq 2026-yil 1-martdan 2027-yil 1-martgacha sinov tariqasida maqsadli tartib joriy etildi: xomashyo importiga boj stavkasi tayyor mahsulot stavkasidan yuqori bo‘lgan tovarlar ro‘yxati shakllantirilib (2026-yil 29-martdagi komissiya bayoniga ko‘ra 15 turdagi tovar tasdiqlangan), bu ro‘yxatdagi tovarlarni qayta ishlangandan so‘ng erkin muomalaga chiqarishda boj kelib chiqish mamlakatidan qat’i nazar boj tarifi stavkalarida qayta ishlash mahsulotidan undiriladi va bojxona imtiyozlari qayta ishlash mahsulotlariga nisbatan qo‘llanadi. Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 21-maydagi 266-son qarori bilan bojxona qiymatini belgilash va to‘lovlarni hisoblash tartibi tasdiqlandi, BYDni to‘ldirish yo‘riqnomasi 090 va 091 xususiyat kodlari bilan to‘ldirildi. **Oltinchi bosqich (2027-yildan).** Prezidentning 2026-yil 27-avgustdagi PF-174-son Farmoniga ko‘ra 2027-yil 1-yanvardan qayta ishlash muddati o‘tgan va 30 kun ichida olib chiqilmagan tovarlar bo‘yicha to‘lovlar so‘zsiz undiriladi; tovarlar amalda qayta ishlanmagan yoki faqat sodda operatsiyalar bajarilgan bo‘lsa, rejimda bo‘lgan har bir kun uchun qayta hisoblangan to‘lovlardan Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida foiz undiriladi; yuqori xavfli tovarlarga differensial yondashuv joriy etiladi va bir yilda ikki va undan ortiq marta buzgan shaxslar uchun to‘lovlar ta’minoti talabi qayta tiklanadi.

4. Tendensiya va xulosalar

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, rejimni tartibga solish ma’muriy nazoratdan (litsenziyalash) liberallashtirishga (ruxsatnoma, ta’minot talabining bekor qilinishi), keyin esa maqsadli rag‘batlantirishga (ro‘yxatga asoslangan tartib, tayyor mahsulotdan boj hisoblash) va shu bilan birga moliyaviy javobgarlikni kuchaytirishga (muddat buzilishi va soxta operatsiyalar uchun foiz, xavfga asoslangan ta’minot) o‘tmoqda. Ya’ni islohotlar mantig‘i «yengillik - hisobdorlik» tamoyiliga tayanadi.

Mualliflik fikricha, keyingi bosqichda quyidagilar zarur: birinchidan, berilgan bojxona yengilligi bilan uning evaziga yaratilgan natijaning (mahalliy qo‘shilgan qiymat, eksport tushumi, import o‘rnini bosish, qo‘shimcha soliq tushumlari) nisbatini baholash mezonlarini joriy etish; ikkinchidan, ro‘yxatga kiritiladigan tovarlarni tanlashda ishlab chiqarish salohiyati va texnik-iqtisodiy asoslarga tayanishni davom ettirish; uchinchidan, xomashyo sarfi normasi, tayyor mahsulot chiqish koeffitsienti, tabiiy yo‘qotish va chiqindi ko‘rsatkichlarini raqamli nazorat qilish mexanizmini rivojlantirish. Bu rejimning iqtisodiy samarasini oshirish bilan birga, undan suiiste’mol qilish xavfini kamaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi (1997-yil 26-dekabr; 2016-yil 22-aprel, yangi tahrir).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi PF-115-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-oktabrdagi PQ-392-son qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 2-sentabrdagi 555-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-dekabrdagi PF-250-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 21-maydagi 266-son qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-avgustdagi PF-174-son Farmoni.